



# Antidoping qoidabuzarlik turlari

**WADA Butunjahon antidoping agentligi  
Kodeksining 2-moddasiga muvofiq**

**O‘zbekiston Respublikasi Milliy Antidoping Agentligi  
Antidoping ta’lim dasturlari bo‘limi boshlig‘i  
dotsent Z.Yu. Gaziyeva tomonidan tayyorlandi**

**Toshkent-2022 yil**

# 1. Ta‘qiqlangan modda, uning metaboliti yoki markerining sportchidan olingan sinamada mavjudligi

Har bir Sportchi undan olingan namunada aniqlangan har qanday ta‘qiqlangan modda, yoki uning metaboliti, yoki markeriga *javobgar* hisoblanadi.



## 2. Sportchi tomonidan ta'qiqlangan modda yoki uslubni qo'llash yoki qo'llashga urinish



Har bir Sportchi o'zining organizmiga ta'qiqlangan modda tushishiga yoki ta'qiqlangan usulni qo'llashga qarshilik qilishni ***shaxsiy majburiyat*** deb bilishi shart.

### 3. Doping-test topshirishdan bosh tortish, qarshilik ko‘rsatish yoki tashrif buyurmaslik



Antidoping qoidalariga binoan bildirishnoma yuborilgandan keyin sinama topshirishdan asossiz sabablarga ko‘ra **qochib yurish, bosh tortish, rad etish yoki *sinama* topshirishga kelmaslik** Antidoping qoidalarini qo‘pol buzgan hisoblanadi.

## 4. Sportchi tomonidan ADAMS tizimida ma'lumot taqdim etish tartibini buzish



Joylashuv to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish xalqaro standartning sinov uchun majburiy talabidir.

Sportchining joylashuvi haqida aniq ma'lumotlar yangilanib borishi zarurdir.

ADAMS manzilning Internet ma'lumotlari orqali joylashuv to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish va o'zgartirish kerak.

## 5. Sportchi yoki uning personali tomonidan doping-nazoratining barcha bosqichida soxtalashtirish yoki soxtalashtirishga urinish.



Doping nazoratini amalga oshirishga to'sqinlik, ammo ta'qiqlangan usul doirasiga kirmaydigan har qanday xattiharakatlar (IDKga to'sqinlik qilish yoki unga harakat qilish, ADOga yolg'on ma'lumot berish, guvohni qo'rqtish yoki unga harakat qilish) mumkin emas.

## 6. Ta'qiqlangan modda yoki ta'qiqlangan usulni qo'llash uchun asbob-uskunalariga egalik qilish




# 7. Sportchi yoki uning personali tomonidan ta'qiqlangan modda yoki anjomni tarqatish yoki tarqatishga urinish



## 8. Sportchiga ta'qiqlangan modda yoki uslubni tavsiya qilish yoki tavsiya qilishga urinish



## 9. Antidoping qoidabuzarligida hamkorlik qilish, yordam ko‘rsatish, rag‘batlantirish, uyushtirish, yashirish va boshqalar



Antidoping  
qoidalari buzishga  
ko‘maklashish,  
imkoniyat yaratish,  
til biriktirish,  
rahbatlantirish,  
ig‘vogarlik, berkitish  
yoki berkitishda  
ishtirok  
etish.

# 10. Diskvalifikasiya jazo muddatini o‘tayotgan sportchi yoki uning personali bilan hamkorlik qilish



Diskvalifikasiya muddatini o‘tayotgan sportchi yoki sportchi personali bilan hamkorlikda ishslash taqiqlanadi.



# 11. Antidoping qoidabuzarligi haqida ma'lumot yoki isbotni ko'ngilli ravishda taqdim etgan shaxsga qarshi qasddan harakat qilish



# Doping nazorati natijalariga ko'ra quyidagi choralar qo'llaniladi:

- doping yoki uning hosilalari birinchi marta aniqlansa, sportchi 2 dan 4 yilgacha diskvalifikasiya (musobaqalardan chetlatish) qilinadi
- sportchi ikkinchi marotaba doping qo'llagan bo'lsa, 4 yildan umrbodgacha diskvalifikasiya qilinadi
- sportchi uchinchi marotaba doping qo'llagan bo'lsa, umrbodga sport musobaqalarida ishtirok etishdan mahrum qilinadi

# ТА'QIQLANGAN MODDALAR BOR!



- АДЕЛЬФАН- ЭЗИДРЕКС  
! гидрохлортиазид (диуретик)

Qon bosimi  
oshganda



- РИНОФЛУИМУЦИЛ  
! туаминогептан! (стимулятор)

Burun oqqanda



- ГЕПАТРОМБИН  
! преднизолон (глюкокортикоид)

gemorroydan

# Tarkibida taqiqlangan Fenilefrin moddasi bor vositalar





Mumkin emas!

Nojo‘ya ta’sirlari

**Immun tizimi buzilishlari: Tez-tez – allergik reaksiyalar\*.**

**Kam hollarda – yuqori sezuvchanlik, allergik dermatit, eshakemi, angionevrotik shishi, anafilaktik reaksiyalar.**

**Ruxiy buzilishlar: Kam hollarda – qo‘zg‘alish, qo‘rquv xissi, uyquni buzilishi.**

**Nerv tizimining buzilishlari: Tez-tez – bosh og‘rig‘i\*, Kam hollarda – paresteziyalar, et uvishishi, gipesteziya, quloqlar shang‘illashi, vertigao, bosh aylanishi, yurishni buzilishi, xushdan ketish oldi xolati, xushdan ketish.**

**Yurak faoliyatini buzilishi**

**Kam hollarda – aritmija, yurakni urib ketishi, taxikardiya/sinusli taxikardiya, yurak bo‘lmachalari fibrillyasiyasi, ko‘krakda diskomfort xissi/ko‘krakda og‘riq.**

**Qon tomirlar tizimini buzilishlari**

**Kam hollarda – arterial bosimni oshishi/pasayishi, gipertenziv kriz, giperemiya, oqarish.**

**Respirator kasalliklar va ko‘krak qafasi kasalliklari**

**Kam hollarda – tomoqni yallig‘lanishi, yo‘tal, dispnoe, apnoe.**

**MIY faoliyatini buzilishlari: Tez-tez – dispepsiya\***

**Kam hollarda – disgevziya (og‘izda metall ta‘mi), ishtahani yo‘qolishi, quшивга qistovlar, ko‘ngil aynishi, quшив, meteorizm, ich ketishi, qorinda og‘riqlar.**

**Teri va teri osti to‘qimlarini shikastlanishlari**

**Kam hollarda – toshmalar, umumiylmakulez/papulez toshmalar, qichishish.**

**Skelet-mushak va yondosh tizimining shikastlanishlari**

**Kam hollarda – belda og‘riq, mushak kuchsizligi, mushak spazmlari.**


**Buyrak faoliyatini va siydik chiqarish yo‘llarini buzilishlari**

**Kam hollarda – pollakiuriya (kuchli qistovlar va og‘riq bilan birga kechuvchi tez-tez siyish).**

**Umumiyl buzilishlar va yuborish joyidagi reaksiyalar**

**Kam hollarda – umumiyl kuchsizlik, qaltirash, asteniya, shish, yuzni shishi, oyoqlarni shishi, qizish hissi, sovuqni his qilish, sovuq ter.**

# Retabolil, anabol, danabol, stanozalol



Vositaning davolovchi samarasidagi nojō‘ya ta’siri!

Ikkala jinsdagi pasientlarda: jig‘ildon qaynashi, ishtahani yomonlashishi, tilda achishish hissi, gonadotropinning sekresiyasini bostirilishi, xolestaz, sariqlik, organizmda azot, natriy va suvni tutilishi, shishlar, terining kuchli vaskulyarizasiysi, giperkal’siemiya (birinchi navbatda bemorni immobilizasiyasida, ayollarda ko‘krak bezining metastatik raki), ayollarda virilizasiya (xusnbuzar, girsutizm, erkaklarnikidek sochni to‘kilishi, tovush tembrini qaytmas pasayishi, hayz ko‘rish siklini buzilishi, klitorni gipertrofiyasi), erkaklarda – moyaklar faoliyatini buzilishi, oligospermiya, ginekomastiya, impotensiya.





# MUMKIN EMAS!

## Preparatning savdo nomi: Djintropin®.

## Ta'sir etuvchi modda (XPN): somatropin

- Nojo‘ya ta’sirlari (VOSITANING DAVOLOVChI SAMARASIDA!)
  - Bosh miyada ichki bosimni oshishi (bosh og‘rig‘i, ko‘ngil aynishi, quşish, ko‘rishni buzilishi), qalqonsimon bez faoliyatini pasayishi, giperglikemiya, leykomoid reaksiyalar, son suyagi boshini epifizeolizi, periferik shishlar rivojlanishi bilan suyuqlikni tutilib qolishi, artralgiya, mialgiya, tunnel sindromi, miya o‘simalarini.
  - Allergik reaksiyalar: teri toshmasi, qichishish.
  - Mahalliy reaksiyalar: in’eksiya joyida giperemiya, shish, og‘riq, qichishish, lipoatrofiya.
  - Somatropin preparatini nojo‘ya samaralari: holsizlik, charchoqlik, ginekomastiya, ko‘rvu nervi diskini shishi (odatda davolashning birinchi 8 haftasi davomida kuzatiladi, ko‘proq Shereshevskiy-Terner sindromi bo‘lgan bemorlarda bo‘ladi), pankreatit (abdominal og‘riqlar, ko‘ngil aynishi, quşish), o‘rta quloq otiti va eshitishni buzilishi (Shereshevskiy-Terner sindromi bo‘lgan bemorlarda), ilgari mavjud bo‘lgan nevusning o‘sishini tezlashishi (malignizasiya bo‘lishi mumkin), skoliozni kuchayishi (o‘ta tez o‘sishi bo‘lgan bemorlarda), qonda noorganik fosfatning miqdori, paratireoid gormoni va ishqoriy fosfatazaning faolligini oshishi.

# TA'QIQLANGAN MODDALAR BOR!



UzNADA

## QO'LLANILADIGAN SANKSIYALAR

QOIDABUZARLIK TURLARI	STANDART SANKSIYALAR
Namunada taqiqlangan moddaning mavjudligi	<b>4 yil</b>
Taqiqlangan moddadan yoki taqiqlangan usuldan foydalanish yoki foydalanishga urinish	<b>4 yil</b>
<b>Doping testdan qochish, rad etish yoki qatnashmaslik</b>	<b>4 yil</b>
Yashash joyi to'g'risida ma'lumot berish tartibini buzish	<b>2 yil</b>
<b>Soxtalashtirish yoki soxtalashtirishga urinish</b>	<b>4 yil</b>
Taqiqlangan modda yoki usulga egalik qilish	<b>4 yil</b>
Tarqatish yoki tarqatishga urinish	<b>4 yilgacha</b>
Tavsiya qilish yoki tayinlanishga urinish	<b>4 yilgacha</b>
<b>Hamkorlik</b>	<b>2 yildan 4 yilgacha</b>
Taqiqlangan hamkorlik	<b>2 yilgacha</b>

# Namunada taqiqlangan moddaning mavjudligi



- ▶ Dzyudo bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi, Rio-de-Janeyro—2016 Olimpiadasi sovrindori, Osiyo o‘yinlari sovrindori, Osiyo championati kumush medali sovrindori Diyorbek O‘rozboyev doping qabul qilib, uch yilga sport musobaqalarida ishtirok etish huquqidan mahrum etildi. Sportchidan olingan namunalarni tekshirish natijalariga ko‘ra, u taqiqlangan meldoniy moddasini qabul qilgani aniqlangan.
- ▶ Diskvalifikatsiya muddati tugagunga qadar, ya’ni 2021-yil 16-avgustdan 2024-yil 15-avgustgacha O‘rozboyevning xalqaro va respublika musobaqalarida ishtirok etishi taqiqlangan.



Shunday qilib, Elbek Abdullayev 2022-yil 3-mart kuni O‘zbekiston Milliy antidoping agentligi huzuridagi Axloq bo‘yicha komissiyasining qaroriga ko‘ra 4 yil muddatga diskvalifikatsiya qilindi. Diskvalifikatsiya davri 2022-yil 3-martdan 2026-yil 2-martga qadar etib belgilandi. E.Abdullayev diskvalifikatsiya davri tugaganga qadar Butunjahon antidoping kodeksi va O‘zbekiston Milliy antidoping qoidalarining 2.1-moddasiga asosan, terma jamoa tarkibida xalqaro va milliy toifadagi musobaqalar va o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlaridan chetlashtiriladi.

Dzyudo bo‘yicha 2021-yil dekabr oyida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston championatida 2-o‘rinni qo‘lga kiritgan sportchi Elbek Abdullayevdan musobaqa davrida doping-sinama olingan. O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi +100 kg vazndagi sportchi topshirgan doping-sinamasida taqiqlangan moddalar borligi aniqlandi. Terma jamoa a’zosi hisoblangan sportchidan Butunjahon antidoping agentligi tomonidan taqiqlangan ro‘yxatga kiritilgan bir emas 4 ta Testosteron, Anastrozol, Boldenon va Oksandrolon moddalarini aniqlangan. Ushbu moddalar, ekzogen (tashqaridan organizmga kiritilgan) Anabolik androgen steroidlar hisoblanadi.

## O‘zbekistonning ikki kurashchisi doping uchun musobaqalardan chetlashtirildi

O‘zbekiston kurashchilari **Gulnor Sulaymonova** va **Abror Jabborov** jahon championatining oltin medallaridan mahrum etildi. Ularning doping-testlari ijobjiy natija berdi. 2019-yil sentabr oyida Janubiy Koreyada bo‘lib o‘tgan kurash bo‘yicha kattalar o‘rtasidagi jahon championati va yakkakurashlar bo‘yicha Jahon o‘yinlari sportchilarining doping-testlari Butunjahon antidoping agentligi (WADA) tomonidan taqiqlangan moddalar mavjudligini ko‘rsatdi.

2019 yilning 18 dekabrdagi Kurash xalqaro assotsiatsiyasi (IKA) komissiyasi o‘zbekistonlik sportchilarni chetlatdi.

### **Gulnor Sulaymonova**

(Dehidroxlorometiltestosteron (CDMT) - anabolik androgenik steroid (AAS)) to‘rt yil davomida va

**Abror Jabborov** (furosemid) antidoping qoidalarini buzganlik uchun musobaqadan boshlab ikki yilga diskvalifikatsiya qilindi.

